

RAQAMLI JAMIYATDA YOSHLAR TARBIYASI MASALALARI VA IJTIMOIY MUAMMOLAR

Teshayeva Gulchehra Murodovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, internet, axborot texnologiyalarining yoshlar ongiga ta'siri, ta'lim-tarbiya olishda jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolar va yechimlar, axborotlashgan jamiyatdagi yoshlarning o'rni va moslashuvi masalalari yoritib berilgan. Virtual dunyo rivojlangan davlatlarda bizdan chorak asr ilgari shakllanib, o'zining salbiy jihatlarini ham namoyon qilib ulgurdi. Yosh avlodning bunday raqamli transformatsiya sharoitida o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Kibermakonning salbiy ta'siridan o'sib kelayotgan yosh avlod huquqlarini himoya qilish masalalari ko'tarildi.

Kalit so'zlar: *Raqamli transformatsiya, axborotlashtirish, internet, raqamli vositalar, axborot texnologiyalari, Alpha avlodi, zumerlar, Y avlodi, millenniallar.*

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются процессы цифровой трансформации, происходящие в нашей стране, влияние интернета и информационных технологий на сознание молодежи, возникающие в обществе проблемы и их решения в сфере образования и воспитания, а также вопросы роли и адаптации молодежи в информационном обществе. Виртуальный мир в развитых странах сформировался на четверть века раньше нас и уже проявил свои негативные стороны. В таких условиях цифровой трансформации кардинально изменился интерес молодого поколения к учебе и познанию. Возникают вопросы защиты прав подрастающего поколения от негативного влияния киберпространства.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, информатизация, интернет, цифровые инструменты, информационные технологии, поколение Альфа, зумеры, поколение Y, миллениалы.*

YOUTH EDUCATION ISSUES AND SOCIAL PROBLEMS IN THE DIGITAL SOCIETY

ABSTRACT

This article covers the digital transformation processes underway in our country, the impact of the Internet and information technologies on the minds of young people, the problems and solutions arising in society in education, the role and adaptation of young people in an information society. The virtual world was formed in developed countries a quarter of a century before us and has already shown its negative aspects. It has radically changed the interests of the younger generation in reading and learning in the conditions of such digital transformation. The issues of protecting the rights of the younger generation growing up from the negative impact of cyberspace are raised.

Keywords: Digital transformation, informatization, Internet, digital tools, information technologies, Alpha generation, Zoomers, Generation Y, millennials

KIRISH

Bungungi kunda mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan internet, virtual dunyo rivojlangan davlatlarda bizdan chorak asr ilgari shakllanib, o'zining salbiy jihatlarini ham namoyon qilib ulgurdi. Butunjahon Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi yoshlarni o'rganishga yondashuvlarni qayta shakllantirdi. Kibermakonning salbiy ta'siridan o'sib kelayotgan yosh avlod huquqlarini himoya qilish masalalari ko'tarildi.

Asosiy qism. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (bundan keyin BMT), Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST), UNISEF Xalqaro bolalar fondi, Birlashgan Millatlar tashkilotining fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha Tashkiloti (UNESCO) birinchilardan bo'lib yoshlarning raqamli texnologiyalar bilan o'zaro harakatlari masalalari bo'yicha tashvish bildirdi.

BMT yoshlarni «15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan shaxslar» sifatida belgilaydi. BMT «Yoshlar – 2030» Yoshlar strategiyasida tashkilotning hozirgi Bosh kotibi Antoniu Gutterish «Yoshlar – juda qimmatli va o'ta muhim resurs. Ko'pincha ular boshqa odamlar tomonidan qilingan zo'ravonlikdan aziyat chekadilar va iqlim o'zgarishi yoki to'g'ridan – to'g'ri qashshoqlik ta'siriga duch keladilar. Ular jamiyatni u yoki bu shaklda rad etishi va inson huquqlarining global eroziyasi hamda adolatga real kirish imkoniyati yo'qligi yukini ko'tarish bilan to'qnashmoqdalar...» deb takidlagan edi.

«Har yili 67 ming nafar yoshlar o'z joniga qasd qiladi... Yoshlar ko'p mushkulotlar va aql bovar qilmaydigan qiyinchiliklarga duch kelishadi, ammo ular

zarur bilimga ega va zamonaviy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydigan g'oyalarga to'la», – degan BMT rahbari. ...».

Birlashgan Millatlar Tashkiloti «Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining Yoshlar bo'yicha maxsus dasturi (YoBMD) quyidagi maqsadni oldiga qo'ygan:

- dunyodagi yoshlarning ahvolidan xabardorlikni oshirish;
- ularning huquqlarini himoya qilish;
- tinchlik va taraqqiyot uchun qarorlar qabul qilishda yoshlar ishtirokini kengaytirish».

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti «Yoshlar va salomatlik uchun xavflar» nomli hisobotida, butun dunyo bo'ylab yoshlar soni keskin ko'paya boshlagani va dunyoni qamrab olgan xalqaro globallashuv sharoitida yangi kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy muloqot uchun ulardan foydalanish oqibatlari yosh avlod hayotini tubdan o'zgartirganini qayd etadi.

Hujjatda virtual makonning rivojlanishi sog'liqni saqlash sohasida yangi muammolarni keltirib chiqarishi ta'kidlanadi. «Birinchi navbatda, bu – virtual kommunikatsiyalardan doimiy foydalanish oqibatida yoshlarning ijtimoiy yakkalab qo'yilishidir».

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) ta'lim, fan va madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlik orqali tinchlikni mustahkamlashga intiladi. 2007 yilda UNESCO tashabbusi bilan yangi «media va axborot savodxonligi» (MAS) atamasi kiritildi. UNESCO strategiyasi axborot savodxonligi va mediasavodxonlikni zamonaviy raqamli muhitda yashash va ishlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning (bilim, ko'nikma va munosabat) jamlangan majmui sifatida birlashtiradi. UNESCO dasturlari Bosh Assambleya tomonidan 2015 yilda qabul qilingan, 2030 yilga qadar kun tartibida belgilab berilgan barqaror taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi.

UNICEFning Insoniyat taraqqiyoti asosini butun dunyo bo'yicha bolalar huquqlarini ta'minlash va ularga g'amxo'rlik qilish tashkil etadi. BMTning 1989 yili qabul qilingan «Bola huquqlari» to'g'risidagi konvensiyasi bolaning yashash, farovon turmush sharoiti, ta'lim olish, ism-sharifi, fuqaroligi, o'ziga xosligini saqlash, alohida yashovchi ota-onalar bilan muloqot qilish, o'z nuqtai nazari va fikrlarini erkin ifoda etish huquqlarini tartibga soladi».

Keyinchalik JSST «Bolalarning o'smirlik davridagi huquqlarini amalga oshirish bo'yicha Umumiy fikrlarni» qabul qiladi va unda imkoniyatlar, qobiliyatlar, intilishlar, energiya va ijodkorlik kuchayib boradigan o'smirlik davridagi bolalar

huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha tavsiyalar beriladi.

XXI asr texnologiyalar (raqamli) rivojlanishi davri sifatida nom olganini hisobga olgan holda «Raqqamli dunyoda bolalarning ahvoli» ma'ruzasida raqqamli texnologiyalar qanday qilib bolalar hayoti va ularning hayotiy imkoniyatlarini o'zgartirib yuborgani ko'rib chiqiladi. Hujjat kibermakonning ijobiy va salbiy tomonlarini batafsil yoritib beradi.

UNISEFning ijrochi direktori Entoni Leyk tadqiqotlar yakunlari bo'yicha qayd etganidek, «Bugun raqqamli dunyo jamiyat oldiga ikki tomonlama vazifani qo'yadi: qanday qilib Internetdan har bir bolaga yetkazilayotgan zararni kamaytirish va ayni vaqtda olinadigan foydani maksimal darajada oshirish mumkin».

Tadqiqotchilar U.Shtraus va N.Xouvning «Tarmoqdagi avlod» nazariyasi asarida «Ko'k kit», «Yugur yoki o'l!», «Kechasi gazni yoq, farishtaga aylanasan»... Shuningdek, maktabda o'quvchi qizlarning shafqatsiz mushtlashishlari, o'qituvchilarga qarshi qatag'on, barchasi ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilindi: ekstremal ermaklar kompyuter ekranlari va telefonlardan o'smirlar hayotiga kirib keldi.

Yaqinda telegramda «Hamster Kombat» nomli o'yin ommalashib ketdi, unda hamsterni bosish uchun tangalar va'da qilinadi, go'yoki ularni haqiqiy kriptovalyutaga almashtirilishi mumkin emish. Va endi, qisqa vaqt ichida, o'n millionlab foydalanuvchilar kemiruvchini birjaning bosh direktoriga aylantirish va boyib ketish istagida o'zlarini unutib unga «tegishmoqda».

Shu bilan birga, ismi sir saqlanishini istagan o'yin ishlab chiqaruvchilari bu yerda hech qanday muddat belgilamagani va o'yin ichidagi pulni loyihadan olib qo'yishning iloji yo'qligi parda ortida qoldi.

Ushbu raqqamli kiberloyihalarning barchasi bitta maqsad o'sib kelayotgan, biz Z – avlodi deb ataydigan yoshlar auditoriyasi uchun mo'ljallangan. Bugungi kunda ushbu ijtimoiy yosh guruhini qanday qilib va qaysi jihatlardan kelib chiqib aniq belgilash kerak? Unga nima uchun bunday nom tanlangan – nima uchun Z – avlodi?

Bu o'rinda Nil Xouv va Uilyam Shtraus tomonidan 1991 yilda «Avlodlar: Amerika kelajagi tarixi 1584 yildan 2060 yilgacha» kitobida bayon etilgan avlodlar nazariyasi deb ataluvchi nuqtai nazardan ko'rib chiqishni klassik yondashuv deb hisoblash maqsadga muvofiq.

Amerikalik ijtimoiy soha olimlari o'z nazariyalarida «avlod» tushunchasining ta'rifini va global texnologik, siyosiy, iqtisodiy va tarixiy omillar ta'sirida shakllangan umumiy qadriyatlar, odatlar va jamoaviy tajribani ajratish uchun asos qilib olgan holda o'zlarining tasniflarini taklif qilishdi.

Shu munosabat bilan biz U.Shtraus va N.Xouv nazariyasini yosh o'zbekistonliklar avlodini tahlil qilishda, bundan tashqari, qo'shimcha ravishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini alohida ko'rsatgan holda qo'llashga harakat qilmoqdamiz.

Avlodlar nazariyasi – generational theory:

Avlodning nomlanishi, tug'ilgan yili (matnda – t.y.)	Hozirgi vaqtdagi yoshi	Tarixning muhim voqealari ta'sir etuvchi omil sifatida	O'ziga xosligi
1. The Silent Generation Sukut saqlovchi avlod: 1920 yillar o'rtalaridan to 1940 yillargacha.	85–105 yosh	Ikkinchi jahon urushi, Buyuk depressiya, fuqarolik huquqlari uchun kurash, yadroviy bomba yaratilishi, sovuq urush boshlanishi	Ijtimoiy muloqot boshqa avlodlarga nisbatan birmuncha kamroq faol, tejamkor va oqilona bo'lib qoldi.
2. Baby Boomers. Urushdan keyingi avlod: 1946–1964 y.	61–79 yosh	Kosmosning o'zlashtirilishi, sovet davri, televideniesining jadal rivojlanishi.	Iste'molchi dunyosi ideallari, an'anaviy oilaviy qadriyatlar va hayot davomida bir joyda ishlash bilan bog'liq.
3. X avlodi. 1965 – 1980-y.	45–60 yosh	Qayta qurish, 1990-yillar, iqtisodiyotdagi girdobli harakatlar.	Mustaqillik, hokimiyatga nisbatan shubha bilan qarash, yuqori texnologiyalarga qiziqish. Yuqori ijtimoiy ko'nikmalar murosaga kelish qobiliyatiga hissa qo'shadi.
4. Y avlodi, milleniallar. 1980 – 1990-y.	35–45 yosh	Modemning ixtiro qilinishi, xalqaro moliyaviy inqiroz, uy-joylar narxining keskin oshishi	Texnologiyalarga qiziqishadi, moslashuvchan turmush ritmiga ega. Birinchi raqamli avlod.
5. Z avlodi, zumerlar. 1990-yillar o'rtalari – 2010 yillar	15–35 yosh	Ayfon, interfeyslar va dashbordlarning ixtiro qilinishi.	Raqamli savodxonlik, global fikrlash, ijtimoiy mediadan

boshida tugʻilganlar.		Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn isteʼmolchilik servislarning gʻurillab rivojlanishi. Shering iqtisodiyoti oʻsishi, pandemiya.	faol foydalanish va past ijtimoiylik bilan bogʻliq
6. Alpha avlodi, 2010 – yil va undan keyin tugʻilganlar.	0–15 yosh	Kovidli yalpi onlayn	Eng erta bolalikdan texnologiyalarga mislsiz imkoniyat

Keyinroq – avlodlar nazariyasini davom ettirib ICT texnologiyalaridan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan yoshlarni belgilash uchun yana bir konsepsiya – tarmoq avlodi yoki NET- Generation, yoki N-Generation kiritildi.

Shunisi eʼtiborga loyiqki, ushbu tadqiqot birinchi marta Internetdan foydalangan holda dunyoning koʻplab davlatlaridan yuzlab respondentlarning ulanishi bilan oʻtkazildi. Ular oʻzlarining Internet-forumlarida va maxsus platformalarida koʻplab tezislarni muhokama qilishdi va ilgari ilmiy adabiyotlarda tasvirlanmagan N-Generatsiylarning bir qator maxsus xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq boʻlishdi. Birinchidan, ular raqamli mediadan shunchalik koʻp foydalanadilarki, bu ularning «tabiiy ijtimoiy landshafti»ga aylandi va undan foydalanish nafas olishga oʻxshaydi. Ikkinchidan, texnologik qobiliyatli ijodiy shaxslar, ular mustaqil ravishda oʻzlarining veb-mahsulotlarini yaratishga qodir. Uchinchidan, qabul qilish tezligi va katta hajmdagi maʼlumotlarga oʻrganib qolgan zumerlar har qanday yolgʻonni osongina aniqlashlari va suhbatdoshidan halollik hamda xushmuomalalik kutishlari mumkin. Ular, shuningdek, senzura toʻqat qilmaydilar, «Tagdor gaplar»dan xursand boʻlishadi hamda hamkorlik va yangi innovatsiyalarga doimo ochiq.

Irqiylar va diniy farqlarga qaramay, barcha mamlakatlarning «N-Gen» madaniyatiga oʻxshash boʻlishi muhim, chunki u bir xil sharoitlar taʼsirida shakllangan. Bunga atrof-muhitning ifloslanishi, jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi noaniqlik, oʻsmirlarning oʻz joniga qasd qilish toʻlqini, ota-onalar nazoratining yetishmasligi va jiddiy epidemiyalar xavfi kiradi. Bu muammolardan va qoʻrquvdan xalos boʻlish uchun «N-Gen», zumerlar koʻpincha filmlar, musiqa va brendlarning faol isteʼmolchisiga aylanadi.

Keyinchalik, «tarmoq avlodi»ni belgilashga «raqamli aborigenlar», (yaʼni, mahalliy aholi) – Digital Natives taʼrifini qoʻshib qoʻyishadi.

Gʻayrioddiy metafora raqamli dunyoda va ICT-texnologiyalari rivojlanayotgan davrda tugʻilib oʻsganlar bilan innovatsiyalarga doimo begona boʻlib qoladigan va shuning uchun «raqamli muhojir» boʻlganlar oʻrtasidagi farqlarni taʼkidlaydi. Agar mahalliy aholi, yaʼni yosh avlod raqamlar tilini tom maʼnoda ona suti bilan

singdirgan bo'lsa, uning tashuvchisi bo'lgan «muhojirlar», hatto yangilikni o'rganish va o'zlashtirishga ishtiyoqmand bo'lsalar-da, hamisha u haqida ko'proq yoki kamroq urg'u bilan gapiradilar. Biroq mahalliy aholining onlayn muhokama qilishdan charchamaydigan eng katta muammosi – bu ularning raqamli avlodini- bugungi kollej hamda universitet talabalarini tarbiyalash uchun mo'ljallanmagan va moslashtirilmagan, umuman olganda, orqada qolgan ta'lim tizimi. Ular nafaqat kiyim-kechaklarini, o'zlarining o'tmishdoshlari bo'lgan uslubni, jargonni, balki fikrlash tarzini, ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlashni ham o'zgartirdilar:

Tarmoq avlodi – bu vizual ob'yektlarni idrok etish va video o'yinlarni yo'naltirish, texnologik bilimlar hajmini, ko'nikmalarini va ulardan foydalanish tezligini oshirishda o'tkir ongga ega bo'lgan haqiqiy global ko'p millatli va eng bag'rikeng avlod. Bularning barchasi «mahalliy»larga kerakli ma'lumotlarni tezda topish, ularni saralash, baholash va bilimga aylantirish imkonini beradi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tafovutlar aksariyat o'qituvchilar taxmin qilganidan ancha ko'p va chuqurroqdir. Shu munosabat bilan, eng katta muammo «muhojir» o'qituvchilarning o'zlari, ularning raqamli davrdan oldingi eskirgan tili bo'lib qoldi, ular mahalliy aholiga o'zlarining maxsus tilini e'tiborsiz qoldirib o'rgatadilar.

XULOSA

Raqamlashtirish masalasi juda murakkab va uni yagona nuqtai nazardan ko'rish mumkin emas. Bu jarayonning afzalliklari va kamchiliklarini o'zaro muvozanatlashtirish muhimdir. Jamiyat sifatida, raqamlashtirishning ijobiy tomonlarini maksimal darajada oshirish va salbiy tomonlarini minimallashtirishga harakat qilishimiz kerak. Bu esa, yoshlarning tarbiyaviy masalalarini inobatga olgan holda ijobiy ta'sirini oshirish, xususan, ish o'rinlarini saqlab qolish, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash va texnologiyalarni hamma uchun o'zlashtirilishini ta'minlash kabi masalalarni hal qilishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PQ-162-son qarori
2. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.
3. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.

4. Babadjonov S.S. Jamiyatning mediavaxfsizligi sharti sifatida mediata'lim sohasining rivojlanishi. // «Zamonaviy informatikaning dolzarb muammolari: o'tmish tajribasi, istiqbollari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2016-yil 154-aprel. 1-qism, 17-b. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. <http://edu/of/ru/mediaeducation>
<http://www.medigram.ru/mediaed/journal>
5. Balmayeva S.D. «Mnogozadachnoye pokaleniye», defitsit vnimaniya i konvergensiya // Mediakonvergensiya i multimedijnaya jurnalistika / sost. S.D. Balmayeva. Yekaterinburg, Gumanitarniy un-t, 2011. S. 49.
6. Гришин С.Е. Формирование культуры кибербезопасности социально-экономического университета. 2011. № 4. С. 170-173.
7. Teshayeva Gulchehra Murodovna. (2024). Jamiyatni axborotlashtirishning muhim omillari. *Science and Society*, 2(11), 61–68. Retrieved from <https://journals.uznauka.uz/index.php/ojs/article/view/803>
8. Г.Тешаева//Формирование в новом Узбекистане цифрового общества//Oriental journal of technology and engineering 2024.
<https://supportscience.uz/index.php/ojte/article/view/1021>
9. G.M.Teshaeva //Man in the digital society//European international journal of multidisciplinary research and management studies.